



Xizmatlar sohasi

Yanvar-aprel 2019 Yil

Raq'amlar:

- 2019 yil yanvar-aprel oyida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3869,5 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'shish sur'ati 148,6 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1333,0 ming so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholining turmush darajasini, investitsion muhitini, ishbilarmonlik muhitini va biznesni rivojlantirishni yaxshilaydi.

2019 yil yanvar-aprel oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3869,5 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulush savdo xizmatlari (32,0 %), transport xizmatlari (25,9 %), moliyaviy xizmatlar (13,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2,5 %) tashkil etadi.


2019 yil yanvar-aprel oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish
(2019 yil yanvar-aprel oyi uchun)**

	mlrd. so'm	2019 yil yanvar- aprel oyiga nisbatan % hisobida	yakunga nisbatan % hisobida
Jami xizmatlar	3869,5	109,1	100,0
shu jumladan: xizmat turlari bo'yicha			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	95,3	106,8	2,5
moliyaviy xizmatlar	513,7	148,6	13,3
transport xizmatlari	1001,0	100,7	25,9
shu jumladan: avtotransport xizmati	963,3	101,4	24,9
yashash va ovqatlanish xizmatlari	176,3	108,9	4,5
savdo xizmatlari	1239,3	102,9	32,0
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	133,7	100,8	3,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	97,6	118,8	2,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	70,3	126,8	1,8
ijara xizmatlari	122,9	100,9	3,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	90,4	104,0	2,3
shaxsiy xizmatlar	107,2	100,3	2,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	100,2	151,9	2,6
boshqa xizmatlar	121,6	107,9	3,1


2019 yil yanvar-aprel oyida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.sum



Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'lmagan holda o'sish sur'ati transport xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ularning hajmi 2019 yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 0,1 trln.so'mga oshdi.

O'tgan yilning mos davriga savdo xizmatlari (0,1 trln. so'm) va moliyaviy xizmatlar (0,1 trln. so'm)ga oshganligi kuzatildi.


2019 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2019 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (151,9%), Moliyaviy xizmatlar (148,6%), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (126,8%), Yashash va ovqatlanish xizmatlari (108,9%) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


Eng past o'sish sur'atlari esa ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (100,8%), Shaxsiy xizmatlar (100,3%), tashkil etdi.

2019 yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan
bozor xizmatlari tarkibi, %



Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (85,7%) etakchilik qilmoqda. Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari tashkil etadi. Bugungi kunda savdo-sotiq iste'mol bozoriga bo'lgan talabni shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi. 2019 yil yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlari hajmi 1239,3 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 32,0 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 74,6 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 17,7% ni tashkil etdi. Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 7,6 % ni tashkil qiladi.

**2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**


	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd.so'm	2019 yil yanvar-aprel oylariga ga nisbatan % da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da	ming so'm	2019 yil yanvar-aprel oylariga ga nisbatan % da
Toshkent viloyati	3869,5	109,1	100,0	1 333,0	107,6
shaharlar:					
Nurafshon	711,4	135,9	18,4	14 729,1	134,2
Olmaliq	239,9	103,6	6,2	1 855,0	102,2
Angren	179,3	105,5	4,6	963,3	104,2
Bekobod	157,7	104,7	4,1	1 670,2	103,3
Chirchiq	261,6	105,5	6,8	1 678,3	104,7
Ohangaron	60,3	105,4	1,6	1 630,0	104,0
Yangiyo'l	154,7	103,9	4,0	2590,5	103,2
tumanlar:					
Oqqo'rg'on	97,0	104,0	2,5	936,9	102,6
Ohangaron	59,7	100,2	1,5	632,1	98,8
Bekobod	90,3	103,2	2,3	582,2	101,6
Bo'stonliq	177,6	103,6	4,6	1 061,1	102,6
Bo'ka	92,3	103,4	2,4	745,3	101,6

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd.so‘m	2019 yil yanvar-aprel oylariga ga nisbatan % da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da	ming so‘m	2019 yil yanvar-aprel oylariga ga nisbatan % da
Zangiota	296,4	103,5	7,7	1 519,4	102,4
Qibray	350,2	108,5	9,1	1 770,2	107,1
Quyichirchiq	58,1	104,0	1,5	545,7	102,6
Parkent	135,8	105,2	3,5	891,9	103,4
Piskent	48,3	101,9	1,2	485,8	100,6
Toshkent	181,1	106,0	4,6	1018,0	104,6
O‘rtachirchiq	133,0	100,4	3,4	904,9	98,7
Chinoz	111,9	104,3	2,9	849,6	102,8
Yuqorichirchiq	115,2	106,0	3,0	865,0	104,5
Yangiyo‘l	157,5	101,2	4,1	761,4	99,7

Hududlar o‘rtasida eng yuqori o‘sish sur‘atlari Nurafshon (134,2%), Chirchiq shaharlari (104,7%), Qibray (107,1%), Toshkent (104,6 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Eng past o‘sish sur‘atlari esa Yangiyo‘l (99,7%) Ohangaron (98,8%) tumanlariga to‘g‘ri keladi. 2019 yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 1333,0 ming so‘mga teng bo‘ldi. O‘sish sur‘ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 107,6% ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Joriy yilda viloyatda aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng yuqori xizmatlar ulushi Nurafshon shahrida – 14729,1 ming so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 134,2 % tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng kichik xizmatlar ulushi Piskent tumanida 485,8 ming so'mni o'sish, sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (100,6 %), Quyichirchiq 545,7 ming so'mni o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (102,6 %), Bekobod 582,2 ming so'mni o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (101,6 %), tashkil etdi.


2019 yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %




Viloyatda eng katta ulush Nurafshon (18,4 %) Qibray (9,1 %) Zangiota (7,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Viloyatda eng past ulush esa Ohangaron (1,5 %), Quyichirchiq (1,5 %) va Piskent (1,2%), tumanlarida kuzatildi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faolyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi



2019 yil yanvar-aprel oylarida
jami xizmatlarda kichik biznesning ulushi,%



Viloyatda kichik biznesning eng katta ulushi Oqqo'rg'on (99,3 %), Quyichirchiq (98,9 %) va Yangiyo'l (98,8 %) tumanlarida kuzatildi. Viloyatda kichik biznesning eng past ulushi Nurafshon shahrida (6,8 %) tashkil etdi.

Toshkent viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: M.Tastanbekov

Tel:(71)230-86-74